

TARIXIY OBRAZLARDA ESTETIK IDEAL MASALASI (PIRIMQUL QODIROV ROMANLARI MISOLIDA)

*Qarshi davlat universiteti tayanch
doktoranti Xurshidabonu Sattorzoda*

ANNOTATSIYA:

Ushbu maqolada adabiyotda estetik ideal muammosi va Pirimqul Qodirovning tarixiy romanlarida ideal masalasi “Yulduzli tunlar” va “Avlodlar dovoni” (Humoyun va Akbar) romanlari misolida ko’rib chiqilgan. Ijodkorning tarixiy obraz yaratishda ijodkor idealini qay darajada ro’yobga chiqara olganligi masalasi tahlil qilingan.

***Kalit so’zlar:** estetik ideal, estetik jarayon, go’zallik, fojeaviylik, ijobiy qahramon, obraz, xarakter, tarixiy qahramon, siyosiy ideal, tarixiy ideal, ijodkor mahorati.*

АННОТАЦИЯ:

В данной статье рассматривается проблема эстетического идеала в литературе и проблема идеала в исторических романах Пиримкула Кадырова на примере романов «Звездные ночи» и «Смена поколений» (Хумаюн и Акбар). Проанализирован вопрос о том, как творцу удалось реализовать идеал творца в создании исторического образа.

***Ключевые слова:** эстетический идеал, эстетический процесс, красота, трагедия, положительный герой, образ, характер, исторический герой, политический идеал, исторический идеал, творческое мастерство.*

Ma’lumki, adabiyot insoniyatga ma’naviy ozuqa, estetik zavq bera olishi bilan boshqa san’at turlaridan farq qiladi. Adabiyot va estetika bir biriga chambarchas bog’liq ekan, inson ruhiy ehtiyoji hisoblanmish xalq og’zaki ijodi namunalari, badiiy nasr va nazmiy asarlarning yaratilishi, ijodkor tomonidan ilhom pishib yetilgan pallasining yuksak namunasi bo’lish jarayonlarining barchasi **estetik jarayon**dir. Ijodkor asar yozar va unda o’z **estetik idealini** ko’rar ekan, estetik idealni aslida qanday tushunmog’imiz kerak degan haqli savol tug’iladi.

Estetik ideal (yunoncha g’oyadan - g’oya, tushuncha, prototip, tasvir) - badiiy asarda mujassamlangan mukammallikning badiiy g’oyasi, go’zallikning in’ikos etishi. Estetik ideal ijtimoiy tendensiyalar bilan belgilanadi.

Estetik ideal estetik ongning tarkibiy qismi sifatida estetik faoliyatning eng oliy maqsadi, motivi vazifasini bajaradi. Estetik ideal - bu insonning ma’lum bir axloqiy idealiga mos kelishi uchun san’at asari qanday bo’lishi kerakligi haqidagi g’oya. Estetik ideal genezisining o’ziga xosligi shundaki, u shaxsning ko’p o’lchovli ekzistensial tajribasini sintez qiladi, uni umumlashtiradi. Faoliyat motivi sifatida estetik ideal insonni estetik ehtiyojini qondirishga yo’naltiradi. U bir tomondan hodisalarni estetik baholash mezoni bo’lib xizmat qilsa, ikkinchi tomondan, estetik ehtiyojlarga javob beradigan yangi ijod mahsullarining shakllanishiga turtki bo’ladi.

“Estetik ideal ilmiy kategoriya sifatida, bir tomondan, idealning umumiy tushunchasiga (xalqning barkamollik haqidagi g’oyalari), ikkinchi tomondan, u fan tarixi va dunyodagi turli xil talqinlarni o’z ichiga olgan estetika tushunchasiga borib taqaladi... Idealning umumiy tushunchasini takomillashtirish, uning shaxs ongi va faoliyatidagi rolini aniqlash dunyoqarashlarning keskin kurashlarida uning o’ziga xos shakllarini ma’qullashda namoyon bo’ldi. Siyosiy ideallar jangi

urushlar va inqiloblarni, badiiy-estetik ideallar to‘qnashuvi jangovar badiiy-estetik konsepsiyalarni, adabiy maktablarni, san‘at va adabiyotdagi yo‘nalishlarni keltirib chiqardi...”[3:1]

Л.И.Тимофеевning fikricha, “Estetik ideal- orzu qilingan va tasvirlanishi kerak bo‘lgan tushunchaning aniqroq va go‘zalroq badiiy tasviri. Adabiyot nuqtai nazaridan olsak, bu yozuvchining nazdida, uning tasavvurida hayot va badiiy asarning o‘zaro bog‘liqligidan kelib chiqadigan badiiy olamdirdir. Demak, voqelik nafaqat tarixiy zarurat qonuniyatlari, balki go‘zallik qonunlari asosida ham tasvirlanadi. Estetik ideal insonning barcha intilishlarini ifodalashning maksimal to‘liqligiga ega (berilgan tarixiy sharoitlarda), hayotning xilma-xilligini ochib berish vositasidir.” [4:90]

“Adabiyot nazariyasi”ning ikkinchi jildining “Adabiyotning estetik kategoriyalari” bo‘limida estetik ideal tushunchasi “ijobiy qahramon”, “ideal qahramon”, “ideal obraz” kabi tushunchalar doirasida ko‘rib chiqiladi. Darhaqiqat estetik idealni biz obrazsiz tasavvur qila olmaymiz. Ammo faqat ideal obraz tushunchasini faqatgina ijobiy qahramon sifatida tushunish butunlay to‘g‘ri fikr emas. Zero estetik kategoriyalar fojaviylik, kulgililik, go‘zallik kabi tushunchalarni ham o‘z ichiga oladi deydi A.Akopova o‘z qarashlarida. Adabiyot olamida bu kabi qarama-qarshi fikrlar ko‘plab topiladi.

Yillar o‘tishi bilan insoniyatning estetik ideali transformatsiyalanib ya‘ni o‘zgarib, boyib boradi. Yozuvchining estetik ideali u hayotni qanday tasavvur qilishidan, olamni qay yo‘sinda tanishidan kelib chiqadi. Mumtoz adabiyotimiz namoyondalarining qator asarlarida estetik ideal sifatida qalam ahllari komil insonni tasvirlashgan. Ya‘ni bu komillik yorga (Allohga) bo‘lgan ishqning tajallisi bo‘lib kelgan. Jadid va ma‘rifatparvarlik adabiyoti vakillari esa estetik ideal ma‘rifatparvar ziyoli shaxslarni ideal sifatida tasvirlashgan. Bu tushuncha, albatta umumiydir, negaki, ijodkor o‘z idealini o‘zi yaratadi. Har bir davrning o‘z ideali bo‘lgani kabi, o‘z navbatida o‘sha davrda ijod qilgan ijodkorlarning ham ideallari mavjud bo‘lgan. Sho‘ro davriga kelib ijodkorning estetik ideali siyosatga, partiyaga qaram bo‘lib qoldi. Ammo shunday sharoitda ham o‘z so‘zini ayta olgan va o‘zining idealini yarata olgan va uni avlodlarga bus-butunicha yetqazib bera olgan, zamon va makon tanlamaydigan asarlar talaygina. Shunday ijod mahsullaridan biri bo‘lmish maqolamizni tadqiq obyektini sifatida Pirmqul Qodirov ijodining tarixiy romanlaridir desak adashmaymiz. Tadqiqotimizda aynan Pirmqul Qodirovning estetik idealini, yanada aniqroq aytadigan bo‘lsak, yozuvchining estetik ideal yaratish mahoratida obrazlar va tarixiy qahramonlarning o‘rni qay darajada ekanligiga qisqacha to‘xtalib o‘tamiz.

Pirmqul Qodirovning “Yulduzli tunlar” romani bugungi kunda nafaqat o‘zbek adabiyotida, balki, jahon adabiyotida ham o‘z o‘rniga ega. Ijodkor ma‘naviy estetik olamining go‘zal namunasi bo‘lmish Bobur obrazini yaratilishi haqida Pirmqul Qodirov o‘zining “Haq so‘z uchun kesligan boshlar” maqolasida shunday deydi: “...Boy o‘tmishimizni o‘rganar ekanman, ulug‘ ajdodlarimiz haqida tarixiy xotirani uyg‘otadigan asarlar yozishim kerak degan xulosaga keldim. Sohibqiron Amir Temurning munosib davomchisi – Zahiriddin Muhammad Bobur shaxsi meni yoshlikdan ohanrabo kabi o‘ziga tortardi. «Yulduzli tunlar» romanimni yozish uchun tunu kun izlana boshladim. Lekin uzoq moziyning chigal tarixiy muammolari orasiga kirib borganim sari oldimda turgan vazifaning ulkanligi, mushkulotlar ko‘pligi, buning uchun katta tayyorgarlik va tajriba zarurligini his qildim. Bu ishning uddalay olmasam, xalqimiz uchun behad qadrli mavzuni hayf qilib qo‘yishdan qo‘rqar edim.

O‘ylab qaragam, Mirzo Bobur haqida roman yozganim tasodif emas ekan. Fan allaqachon energiyaning saqlanish qonunini kashf etgan. Bu jihatdan olganda, inson ruhi, uning irsiyati ham energiyaning bir turi. Bobur haqida kitob yozishimga ana shu ruhiy qudrat katta ta‘sir ko‘rsatgan deb o‘ylayman.” [6:6] Ijodkor o‘z estetik idealining dunyoga kelishini ruhiy qudrat natijasi deb ataydi.

Ma'lumki, Bobur tariximizning o'ta murakkab va chigal davrida yashab o'tgan. Romanda bu murakkab shaxsning tarix sahnasiga chiqqan kundan toki vafot etguniga qadar bo'lgan ulkan tarixiy jarayon hamda qirg yillik davr tasvirlanadi. Qirg yillik saroy muhiti, oila munosabatlari, shoir va olim sifatidagi faoliyati, ruhiy ma'naviy dunyosi, shoh va sarkarda sifatidagi ziddiyatga to'la hayoti qalamga olinadi. E'tiborli jihati, yozuvchi XVI asr boshlarida yuz bergan O'rta Osiyo, Afg'oniston, Hindiston tarixidagi muhim voqealarni haqqoniy gavdalandiradi. Romanda Boburning tarixiy shaxs sifatidagi siymosi o'ziga xos xususiyatlari bilan ajralib turadi. Davr ziddiyatlari oldida qanchalik qiyin ahvolda qolmasin, halol bo'lish qanchalik mashaqqat keltirmasin, Bobur haqiqatga-ko'ziga tik qaray oldi. Pirimqul Qodirov "Yulduzli tunlar" romanida Bobur Mirzoning sal kam qirg yillik murakkab, mashaqqatli hayotini badiiy ifodaladi. Roman janri, misoli, ulkan daryo: uning sirti, qirg'oqlari, goh to'lib, goh kamayib oqadi-gan suvi bor. Mohir san'atkor daryoing ostki oqimi, shiddatini asos qilib oladi. "Yulduzli tunlar"ning ostki oqimida inson va shoh Bobur ruhiyatida kechgan nihoyatda murakkab jarayonlar aks etgan. Bir tomondan, Bobur – shoh: Amir Temur avlodi. Uning tomirlarida Bobo Temurdan meros qon harakat qilyapti. Shohlikning qat'iy, shakllangan qonun-qoidalari bor. O'n ikki yoshli Bobur boshiga bekorga toj kiydirilmagan.

Ikkinchidan, Bobur Mirzo, hamma qatori, Allohning bandasi: insonga xos jamiki xususiyatlar unga yot emas.

Uchinchidan, Mirzo Bobur yaratganning alohida in'omiga ega –iste'dodli siymo. Shoh Bobur ko'pincha amiru beklar, Temurzodalar davrasida bo'ladi. Ular bilan yuz yoqni o'ylab gaplashadi, diplomatlik tartibotini zinhor unutmaydi. Buni Xadicha begim bilan bo'lgan suh-batda, Badiuzzamon, Muzaffar Mirzolar uyushtirgan ziyofatdagi munosabatlarda kuzatish mumkin.

Bobur shoh xonu beklar, amiru navkarlar qurshovida bo'ladi-yu, ko'ngli hamisha Alisher Navoiyni, shoiru san'atkorlar suhbatini qo'msaydi.

"Yulduzli tunlar"da Boburning ijod jarayoni ko'rsatilmaydi. Ammo Boburning ayni bahor pallasida yalangoyoq bo'lib adiru qirlarda yurishi, yam-yashil dalalarga suqlanib boqishi, moviy osmonda uchayotgan qushlarni havas bilan kuzatishi ko'z o'ngida namoyon bo'layotgan tayyor she'r emasmi?! Bobur xayollari-chi? Yetar, bas. Shohlik kamarimni yechaman, oddiy cho'pon, dehqonday qir-adirlarda mehnat qilaman. Jangu jadallardan, quvish-qochishlardan zada bo'ldim... Orzular qanotida parvoz qilayotgan Boburni ishongan, sadoqatli amiri yerga tushirdi, shohlik burch-vazifalarini eslatdi. Bobur chuqur xo'rsindi-yu, etigini kiydi, lashkar-boshilik kamarini bog'ladi, otga minishga majbur bo'ldi.

Pirimqul Qodirov podsho va inson Bobur ruhiyatini bir yo'la tasvirlab boradi. Qor gupillab yog'ib turganida Bobur tog' dovonini oshib o'tishi zarur bo'lib qoldi. Bobur oddiy navkarlar qatori qor bo'ronida qoldi, sovuq suyak-suyagidan o'tib ketdi. O'sha damda u ilk bor kasalga chalindi. Ibrohim Lo'diy bilan jang qilmasa, zaharlanmagan bo'lardi. Xullas, shohlik yumushlari insoniy xususiyatlar o'zaro omuxta bo'lib ketadi.

Bobur obrazida o'z idealini ko'rgan va shu ideal bilan "yashagan" muallif yon daftarlarini ko'zdan kechirib uning ahli oilasi bilnan suhbat qurgan ustozning shogirdi To'lqin Eshbek o'z maqolasida shunday deydi: "...Pirimqul aka va Sofiya onaning chirog'ini yoqib o'tirgan qizlari Yaxshigul opa shunday dedi:

– Otam rahmatli o'z ijodi bilan Bobur Mirzo siymosini yaratgan ekan, ul zotni hamisha barhayot deb atardilar...

Aslida esa, o'sha o'lmas asarlari bilan atoqli adib Pirimqul Qodirov ham mangu barhayotdir.

Toshkentga o'zgacha fayzu tarovat baxsh etib turgan Bobur bog'ida ustoz bilan sayr etgan damlarni xotirlar ekanman, ne ajabki, buyuk ajdodimiz Zahiriddin Muhammad Bobur yonida ulug' adib Pirmqul Qodirov ruhlari ham birga shodon kezib yurganini his etdim!..[7:7]

Ong-u shuuriga singib ketgan, uning tahayyul olamini ishg'ol qilgan Bobur obrazida Pirmqul Qodirov qanchalar nafasat, go'zallik, barkamollik, to'kislik, yetuklik, fojiaviylikni ko'ra bilganligi oynadek ak etib turibdi. Uning tafakkurini shunday o'ylar cho'lg'ab olar ekan, mazkur romanning mantiqiy davomini yozish istagi unga tichlik bermasdi. Taxt uchun kurashdek ziddiyatli vaziyatdan birozgina bo'lsa-da tinchigan, ammo davlat boshqaruvi mashaqqatlari va hali hamon Boburiylar sulolasi taqdiri xavs ostida turgan tarixiy sharoit haqida yozish fikri nihoyat Pirmqul Qodirovni "Avlodlar dovoni" tarixiy romanini yozishga undaydi.

Pirmqul Qodirov bir necha bor Hindistonga bordi, sharoit, "Avlodlar dovoni" romanida boburzodalar, ularning muhiti ishonarli tasvirlangan muhitni Humoyun, Akbar singari boburzodalar yashagan muhitni o'z ko'zi bilan kuzatdi, roman qahramonlari xarakteridagi asosiy xususiyatlarni aniq bilib olishga intildi. Humoyun otasi boshlagan ezgu ishlarni davom ettir-di, shahzodalararo ziddiyat, jangu jadallar yo'lini to'sdi. Jigari bo'lishiga qaramay haddidan oshib ketavergan Komron Mirzo ko'zlariga mil torttirdi. Akbarshoh Hindiston tarixida betakror qayta quruvchi (reformatsor), faylasuf sifatida iz qoldirdi. U, otasi, bobosi singari, muqaddas kitoblarni berilib o'qidi, donishmandlar bildirgan teran qarashlardan oqoh bo'ldi. Akbarshoh faoliyatida musulmon dini qarashlari bilan hindlarning donishmandliklari birlashib ketdi.

Pirmqul Qodirovning tarixiy asarlarida XIV—XVI asrning nurli siymolari – Amir Temur, Zahiriddin Bobur, Xumoyun Mirzo, Akbarshoh singarilar xakteri yaratildi. Yozuvchi inson va zamon bog'liqligi, shaxs va ijtimoiy muhit aloqadorligini ishonarli ko'rsatadi. Tarixiy asarlarda Pirmqul Qodirovning san'atkorlik mahorati, hech kimnikiga o'xshama-gan uslubi, muammolar yechimidagi donishmandligi, teran tafakkuri aniq ko'rinadi. Yozuvchi zamondoshlarimizni bezovta qilayotgan ko'pgina muammolar qachonlardir ajdodlarimiz boshiga ham tushgani, ular esa bu muammolarni hal qilib, o'z tarixiy tajribalarini bizga meros qilib qoldirganliklarini obrazli tasavvur qila boshlaydi. Ana shu obrazli g'oya Xumoyun va Akbar singari tarixiy shaxslar faoliyatlarini yozuvchi ruhiy olamiga muhrlab, ularning umuminsoniy ahamiyatga molik ulug' ishlari adovat tufayli kelib chiqadigan qirg'in-barot urushlarning oldini olish va tinchliksevarlik g'oyalarini keng yoyishdek ezgu faoliyatlari yozuvchi ijodiy niyatini to'lishtira boradi. Pirmqul Qodirov ikki tarixiy romani qahramonlari bo'lmish Bobur, Humoyun va Akbarshoh misolida millatning estetik idealini ko'ra biladi, ularni siyosiy tarixiy ideal sifatida gavdalantiradi va kitobxonga ham bu narsani singdira oladi.

Xulosa qilib aytadigan bo'lsak, modomiki ijodkor o'z estetik idealini o'z galar idealiga qisman bo'lsa-da aylantira olsa, uni mahoratli so'z ustasi, ulkan iste'dod egasi deya olamiz. Pirmqul Qodirov o'zi yaratgan ushbu obrazlarni siyosiy, tarixiy, qolaversa, milliy ideal sifatida o'zbek xalqiga meros qilib qoldira oldi.

Yozuvchi shohlik doimiy huzur –halovatdan iborat emasligini, saltanatni boshqarish dovyurak va tadbirkor shaxslargagina nasib etishini, qaysi bir podshoh o'z hukmdorligi davrida xalqqa qayishsa, elu yurt ham unga balogardon bo'lishini, adolat va insof, xalqparvarlik va ma'rifatparvarlik podshohlar umrini adabiyilashtirishini ana shu tarixiy shaxslar badiiy obraziga singdirilgan davr haqiqatlari misolida o'z estetik idealini teran ifodalab bera olgan.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. P.Qodirov. Avlodlar dovoni, T .: G‘.G‘ulom nomidagi nashriyot, 1989
2. P. Qodirov. Yulduzli tunlar, T .: “Sharq” nashriyoti, 2006
3. А. А. Акопова. Эстетический идеал и природа образа ; НАН Республики Армения, Институт литературыим. М.Абегяна. - Ереван : Гитутюн, 1994.
4. Л.И.Тимофеев, В.Тураев. СЛОВАРЬ ЛИТЕРАТУРОВЕДЧЕСКИХ ТЕРМИНОВ . Москва «Просвещение», 1974
5. Izzat Sulton. Adabiyot nazariyasi. „ O‘qituvchi nashriyoti“., 2005
6. P.Qodirov. Haq so‘z uchun kesilgan boshlar. www.xabar.uz
7. To‘lqin Eshbek. Pirmqul Qodirov saboqlari. www.uchildiz.uz

